



NATIONAL AND INTERNATIONAL LEGAL FRAMEWORKS, PROBLEMS, SOLUTIONS AND TRENDS RELATED TO DOMESTIC VIOLENCE

Dilmurod Mizarov

Lecturer

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

E-mail: mizarovd@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Domestic violence, international law, national legislation, stereotypes in society, legal problems, gender equality, legal protection, procedural shortcomings.

Received: 18.03.25

Accepted: 20.03.25

Published: 22.03.25

Abstract: This article analyzes the national and international legal framework for combating domestic violence, existing problems, ways to solve them, as well as the importance of stereotypes in society in this matter. The article highlights the effectiveness of legal acts concerning domestic violence, procedural shortcomings in their application, and practical proposals for eliminating these problems. Based on international experience, innovative approaches to combating violence and recommendations for improving national legislation are presented.

OILAVIY MAISHIY ZO‘RAVONLIK BILAN BOG‘LIQ MILLIY VA XALQARO HUQUQIY ASOSLAR, MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR, TENDENTSIYALARI

Dilmurod Mizarov

o‘qituvchi

Namangan davlat universiteti

Namangan, O‘zbekiston

E-mail: mizarovd@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Oilaviy zo‘ravonlik, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, jamiyatdagi stereotiplar, huquqiy muammolar, gender tenglik, huquqiy himoya, protsessual kamchiliklar.

Annotatsiya: Mazkur maqola oilaviy maishiy zo‘ravonlikka qarshi kurashishning milliy va xalqaro huquqiy asoslarini, mavjud muammolarni, ularga yechimlarni va ushbu masalada jamiyatdagi stereotiplarning ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada oilaviy zo‘ravonlikka oid huquqiy aktlarning samaradorligi, ularni qo‘llashdagi protsessual

kamchiliklar va bu muammolarni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar yoritilgan. Xalqaro tajriba asosida zo'ravonlikka qarshi kurashda innovatsion yondashuvlar va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ РАМКИ, ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ТЕНДЕНЦИИ, СВЯЗАННЫЕ С ДОМАШНИМ НАСИЛИЕМ

Дилмурод Мизаров

преподаватель

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

E-mail: mizarovd@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Домашнее насилие, международное право, национальное законодательство, стереотипы в обществе, правовые проблемы, гендерное равенство, правовая защита, процессуальные недостатки.

Аннотация: В данной статье анализируются национальные и международные правовые основы противодействия семейному домашнему насилию, существующие проблемы, пути их решения, а также значение стереотипов в обществе в этом вопросе. В статье освещается эффективность правовых актов, касающихся семейного насилия, процессуальные недостатки в их применении, а также практические предложения по устранению этих проблем. На основе международного опыта представлены инновационные подходы к борьбе с насилием и рекомендации по совершенствованию национального законодательства.

KIRISH

Oilaviy maishiy zo'ravonlik inson huquqlarining buzilishining eng jiddiy shakllaridan biri bo'lib, dunyo miqyosida dolzarb muammolardan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi har uchinchi ayol zo'ravonlik qurboni bo'ladi. Oilaviy-maishiy zo'ravonlik – bu oiladagi shaxslar o'rtasida huquq va erkinliklarni buzadigan, ruhiy, jismoniy yoki iqtisodiy zarar yetkazadigan har qanday xatti-harakatlardir. Bu hodisa nisbatan yaqin yillarda muammo sifatida ko'rib chiqila boshlandi. Zo'ravonlik asosiy ijtimoiy institutlarga, jumladan, oila institutiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan eng dolzarb ijtimoiy muammolardan biridir. Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikni keltirib chiqaradigan sabablar ma'lum bir ijtimoiy guruh sharoitida ham, yagona mamlakat sharoitida ham o'ziga xos bo'lishi mumkin. Ko'pgina tadqiqotchilar oilaviy (maishiy) zo'ravonlikning umumiy sabablarini ko'pchilik mamlakatlar uchun xosligini aniqladilar. Xususan, oiladagi zo'ravonlik sabablari orasida eng ko'p "Ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishning past darajasi, yuqori qashshoqlik darajasi, ta'limning past darajasi va demokratik madaniyatning yo'qligi..." oqibatida kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasida oilaviy-maishiy zo'ravonlikka qarshi kurash uchun bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bu hujjatlar oiladagi zo'ravonlikni oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va ular uchun zarur yordam ko'rsatish borasidagi chora-tadbirlarni belgilaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023yil) 26-moddasi har bir insonning qadr-qimmatini himoya qilishni, 27-moddasi esa har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligini kafolatlaydi. Konstitutsiya asosida davlatning huquqiy doirasi va inson huquqlarini himoya qilishdagi asosiy tamoyillar belgilangan.

"Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun 2019-yilda qabul qilingan ushbu qonun ayollar va erkaklar o'rtasida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Aynan shu qonun orqali gender tengligini ta'minlash va ayollarga nisbatan diskriminatsiya va zo'ravonlikni bartaraf etishga oid zaruriy huquqiy mexanizmlar joriy etilgan. Ba'zi hollarda gender tengligi tushunchasini notog'ri talqin qilinishi oqibatida oilalarda turli kelishmovchiliklar yuzaga kelib, oilalar parchalanib ketishiga yoki turli xil ijtimoiy havfli qilmishlar sodir etilishiga sharoit yaratib bermoqda. Yuqoridagi qonuni va gender tengligi tushunchasi tub ma'nosi, oilada ota-ona, farzand va oilaning boshqa a'zolarini o'rni vazifalari to'g'risida mahallarda turli xil targ'ibotlar tushuntirishlar olib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

"Oilaviy-maishiy zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishni kuchaytirish uchun 2020-yilda ushbu qonun qabul qilindi. Qonun oilaviy zo'ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish va zo'ravonlikka nisbatan jinoiy javobgarlikni kuchaytirishga yo'naltirilgan. Ushbu hujjatda oilaviy zo'ravonlikdan zarar ko'rgan ayollar va bolalarni himoya qilish uchun vaqtinchalik boshpana, huquqiy va psixologik yordam ko'rsatish kabi chora-tadbirlar belgilangan.

Jinoyat kodeksining bir qator moddalari xususan, 126¹-moddasi oilaviy zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlar uchun jazolarni belgilaydi va jinoyatchini tarbiyalaydi. Lekin shu o'rinda bir narsaga e'tibor qaratishimiz lozim deb xisoblayman ya'ni, jinoiy javobgarlik va jazoning kuchaytirilishi ba'zi hollarda o'zini oqlamasligi ham uchrab turibdi. Javobgarlik va jazoni qo'llashdan maqsad huquqbuzar yoki jinoyatchini tarbiyalash yana qayta bu yo'lga kirishdan qaytarish bo'lib, ba'zi hollarda jazoni o'tab chiqib ham xulqi yaxshilanmay qasd va nafrat tuyg'usi ortib, yanada og'ir jinoyatlarni sodir etishiga, hattoki turmush o'rtog'ini o'ldirib qasddan odam o'ldirish jinoyatini sodir etgan shaxslar ham yo'q emas. Yuqoridagi holatlarni va psixologik olimlarning xulosalariga qarab, ushbu jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning hayot tarzida va ruhiy holatidagi og'ir trammalar, ruhiy buzilishlar oqibatida shaxs shunday tabiatga ega bo'lib qolishligi

mumkinligi va ularni psixologik jihatdan davolash yaxshi natijalarga olib kelishini inobatga olish va kelajakda nafaqat uni tarbiyalab xulqi yaxshilanishi balki oilalarni tiklanishiga ham olib kelish mumkin.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga 2020-yilda kiritilgan o'zgartirishlar bilan oilaviy zo'ravonlikka qarshi alohida ma'muriy javobgarlik belgilandi. Bu chora, bir tomondan, oiladagi zo'ravonlikni oldini olishga, ikkinchi tomondan esa zo'ravonlikka yo'l qo'yan shaxslarni ma'muriy tarzda jazolashga imkon beradi.

Garchi O'zbekiston qonunchiligida oilaviy-maishiy zo'ravonlikka qarshi turli normativ hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, amaliyotda ularning samaradorligini oshirish zarur. Ayollar va bolalar uchun maxsus boshpana markazlarining mavjudligi, zo'ravonlikni o'z vaqtida aniqlash va jabrlanuvchilarga yetarlicha yordam ko'rsatish tizimining rivojlanishi muhim masaladir. Ushbu qonunlarni atroflicha muhokama qilib shunday xulosa chiqarish mumkinki barchasi inson qadri erkinligi va daxlsizligi uchun xizmat qiladi. Shu o'rinda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59²-moddasini 21²-modda. Yarashilganligi munosabati bilan ma'muriy javobgarlikdan ozod qilish moddasiga asosan tugatiladigan jinoyatlar tarkibiga kiritish lozim deb xisoblayman. Xususan, Jinoyat kodeksi Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik 126¹-moddasi 66¹-modda yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish moddasi tarkibiga kiritilgan. Agar biz ma'muriy javobgarlik bilan bog'liq ishni ham yarashilganlik munosati bilan jazo va javobgarlikdan ozod qilish mumkin bo'lgan jinoyatlar tarkibiga kiritsak, etimol oilani saqlab qolishimiz, holatni yaxshi tomonga o'zgartirishiga olib kelishi mumkin. Hozirda ushbu huquqbuzarlik sodir etgan shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilib, jazo o'tab bo'lingandan so'ng ham uning xulqi yaxshilanmay ruhiy holatida turmush o'tog'iga nisbatan yanada nafrati kuchayishiga olib kelgan va natijada qayta huquqbuzarlik sodir qilib og'ir oqibatlariga sabab bo'lgan holatlar ham yo'q emas.

Oilaviy-maishiy zo'ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashishda xalqaro huquqiy asoslar katta ahamiyatga ega. Bir nechta xalqaro hujjatlar davlatlarga oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishda muayyan choralar ko'rishni va zo'ravonlikning oldini olishga qaratilgan xalqaro standartlarni belgilashga yordam beradi. Quyidagi xalqaro hujjatlarni misol qilish mumkin: BMTning "Ayollarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyasi (CEDAW, 1979-yil) CEDAW Konvensiyasi ayollarga nisbatan diskriminatsiya va zo'ravonlikni bartaraf etishga qaratilgan xalqaro hujjatdir. Bu konvensiya davlatlardan ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish, ularni himoya qilish va gender tengligini ta'minlashni talab qiladi.

Oilaviy maishiy zo'ravonlik ijtimoiy havfli qilmishida nafaqat er va hotin munosabatlari balki oilaning boshqa a'zolari xususan bollarni ham himoyalash lozim bunga misol qilib "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyani keltirish mumkin. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya

bolalarni oilaviy zo‘ravonlikdan himoya qilishni ta‘minlashga qaratilgan. Konvensiya davlatlardan bolalarni oiladagi zo‘ravonlikdan himoya qilish, ularga huquqiy yordam ko‘rsatish va psixologik yordamni taqdim etish bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishni talab qiladi.

O‘tgan asrning 60-yillarida Genri Kempe bolalarga beparvolik va jismoniy zo‘ravonlik muammolari bilan shug‘ullangan va 1962-yilda birinchi marta “kaltaklangan bolalar sindromi” atamasini ilmiy muomalaga kiritgan. O‘zbekistonda faqat XX asrning oxirida oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik muammosi juda keng tarqalgan holda paydo bo‘lgan. Hozirgi vaqtda qonunchilikda bunday zo‘ravonlikka qarshi kurashishning mutlaqo samarali mexanizmi mavjud emas, bu esa: bu sohadagi ishlar holatiga albatta salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik muammosining dolzarbligi. Statistik ma‘lumotlar oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikning global miqyosda ham, milliy miqyosda ham, xususan, O‘zbekiston Respublikasida dahshatli ko‘lamini ko‘rsatmoqda.

Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik qurbonlarining asosiy qismi ayollar va bolalardir. Sh.U. Stepanyanning ta‘kidlashicha, ayollar va bolalar oilaviy zo‘ravonlik qurbonlarining 70% ni tashkil qilishi jiddiy tashvish uyg‘otadi. Bolalar, qariyalar, nogironlar, qaramlik holati tufayli o‘zini himoya qila olmaydigan ayollar oilada har yili oiladagi zo‘ravonlik natijasida halok bo‘lganlarning qariyb 38 foizini tashkil qiladi.

So‘ngi yillarda Oilaviy-maishiy zo‘ravonlikka e‘tibor kuchayishiga qarqamay bir qator muammolar mavjud.

1. Zo‘ravonlikni o‘z vaqtida aniqlash tizimi. Ko‘plab mamlakatlarda oilaviy zo‘ravonlik holatlari o‘z vaqtida aniqlanmaydi. Jabrlanuvchilar ko‘pincha o‘z huquqlarini bilmasliklari yoki jamiyatning toqatli munosabati tufayli huquqiy yordamga murojaat qilmaydi. Bunga yechim sifatida milliy qonunchilikni takomillashtirish: Milliy qonunlarni xalqaro huquqiy me‘yorlarga to‘liq moslashtirish, Istanbul Konvensiyasiga qo‘shilish zarur.

2. Jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan toqat qilish va gender tengligi bilan bog‘liq muammolar. Oilaviy zo‘ravonlik ko‘pincha xususiy muammo sifatida qabul qilinadi, bu esa jabrlanuvchilarga yordam berishga to‘sqinlik qiladi. Ayniqsa, qishloq joylarida oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashning samaradorligi past. Jamiyatdagi turli stereotiplar “Ya‘na qizmi...”, “Sen ayolsan...”, “O‘rtada farzand bor chida o‘tib ketadi...” kabilar natijasi og‘ir bo‘lishi. Nafaqat ayollar balki erkaklar ham ushbu holatning jabrlanuvchisi bo‘lishi mumkinligini ham inobatga olish zarur. “Erkak yig‘lamaydi.”, “Sening xato qilishga haqining yo‘q”, “Hammasi sening qo‘lingda, hammasi senga bog‘liq...”, “Bu erkak kishiga yarasmaydi...” “Odamlar nima deydi...” kabi stereotiplar ularning jabrlanuvchi sifatida murojat qilishiga to‘sqinlik qilishi va yashirishi balki hozirda kam iuchrayotgan bu hollat yuqoridagi stereotiplar sababli yuzaga chiqmayotgan bo‘lishi ham mumkin. Ushbu holatlarga yechim sifatida, jabrlanuvchilar uchun

maxsus boshpana markazlarini tashkil etish, boshpana markazlari va psixologik yordam tizimlarini rivojlantirish. Nafaqat jabrlanuvchi balki sudlanuvchilarga ham psixologik yordam ko'rsatish ularni davolash lozim.

Ommaviy axborot vositalari orqali oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashni targ'ibotining samaradorligi va ta'lim tizimida huquqiy savodxonlikni pastligi. Oilaviy maishiy zo'ravonlikni targ'ibotida ham aksariyat ishtirokchilar ayollarni tashkil etishi. Agarda ushbu targ'ibotlar erkak jinsidagi shaxslar tomonidan amalga oshirilsa, ushbu turdagi jinoyatlarning kamayishiga sezilarli ta'sir ko'satadi.

3. Huquqni muhofaza qilish organlarining sustkashligi. Zo'ravonlikni oldini olish uchun huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyati ba'zan sust bo'ladi. Sud tizimida ham vaqt o'tishi bilan hal qilinadigan ishlar ko'p uchraydi, bu esa jabrlanuvchilarni zarur yordamdan mahrum qiladi. Yechim sifatida, tezkor sud tizimi yaratish: Oilaviy zo'ravonlikka qarshi tezkor sud tizimi tashkil etish, sud qarorlarini tezda bajarilishini ta'minlash.

4. Huquqiy savodxonlikning pastligi – qurbonlar o'z huquqlarini bilmasligi oqibatida yordam so'rashga qo'rqadi. Yechim sifatida ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimi orqali keng ko'lamli huquqiy targ'ibot ishlarini olib borish.

5. Ishonch telefonlari va boshpana markazlarining yetishmasligi – qurbonlarga kechiktirilmasdan yordam ko'rsatish qiyinlashadi. Buga yechim har bir viloyatda maxsus boshpana markazlarini tashkil etish va ularga davlat mablag'larini ajratish.

Shunindek, jahon tajribasi va tendensiyalar foydalanish.

1. Skandinaviya mamlakatlari: Zo'ravonlikka qarshi kurashda maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Masalan, Shvetsiyada zo'ravonlik sodir etgan shaxslarni psixologik reabilitatsiya qilish majburiyati joriy qilingan.

2. Avstraliya: Zo'ravonlik qurbonlarini mudofaa qilish bo'yicha davlat dasturlari moliyaviy yordam mexanizmlari bilan birlashtirilgan.

3. AQSh: Oilaviy zo'ravonlikni oldini olishga qaratilgan "Violence Against Women Act" qonuni orqali qurbonlarni himoya qilish mexanizmlari yaratilgan.

O'zbekiston ushbu tajribalardan foydalanib, zo'ravonlikni kamaytirishga qaratilgan innovatsion chora-tadbirlarni tatbiq qilishi lozim.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki xalqaro tajribalarga asoslanib milliy qonunchiligimizni yanada kuchaytirish, oilaviy maishiy zo'ravonlik jinoyatini sodir etgan shaxslar va jabrlanuvchilar bilan yaqindan ishlash ularga psixologik yordam ko'rsatish, ushbu turdagi jinoyatchilikni oldini olish maqsadidagi targ'ibotlarni kuchaytirish va aholiga yetib boradigan darajada soda va ta'sirli bo'lishiga e'tibor qaratish. Muamoli oilalar bilan mahalla faxriylari ishlashi. Targ'ibotlarda erkaklarning ro'lini oshirish orqali ta'sir doirasini tengaytirish lozim.

O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Qonunchilikdagi o'zgarishlar, yangi qonunlarning qabul qilinishi va amaliy mexanizmlarning joriy qilinishi oilaviy zo'ravonlikni kamaytirishda muhim qadamdir. Ushbu islohotlar orqali xavfsiz va barqaror oilaviy muhitni shakllantirish, ayollar va bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishga erishilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi
2. "Ayollar va erkaklar teng huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonun O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi 562-sonli qonuni.
3. "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun 2023-yil 11-aprelda qabul qilingan qonun, O'zbekiston Respublikasi rasmiy hujjatlari to'plami.
4. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun, 2021-yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga 2023-yil 11-aprelda kiritilgan o'zgartirishlar.
6. BMT Inson huquqlari kengashi hisobotlari.
7. Skandinaviya mamlakatlarining gender tenglik va zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha tajribasi (xalqaro manbalar).
8. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.
9. Sobirovich, T. B., & Ikrom o'g'li, I. M. (2022, September). ISSUE OF THE DEVELOPMENT OF SOCIETY IN THE VIEWS OF EASTERN THINKERS. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 111-114).
10. Sobirovich, T. B. (2021). Issues of gender equality in uzbekistan: Strategy of reforms. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 203-207.
11. Volosova N.Yu. Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik muammosi haqida // Rossiya va xalqaro huquq masalalari. 2017.
12. Stepanyan Sh.U. Oiladagi jinoyat omillari-ayollar jinoyati uchun katalizator//Fuqaro va qonun. 2008. №8.B.60-65.